



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISH VA UNI QISQARTIRISH YO'LLARI

Mirzaev Zoyir Toirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya:

O'zbekistonda keyingi yillarda yashirin iqtisodiyotning hissasini kamaytirish, u orqali yuzaga keladigan soliqdan qochish holatlari hamda soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tov lash holatlarini kamaytirish hamda ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarini samarali amalga oshirilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish borasida me'yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash, sohani raqamlashtirish natijalari hisobiga yashirin iqtisodiyotni jilovlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, yashirin ish o'rinalarini legallashtirish, nazorat tadbirlarini o'tkazish yo'nalishida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, mahalliy soliq, mulkning bozor qiymati, soliq elementlari, byudjet salohiyati, mahalliy byudjet, mahalliy soliqlar, soliqdaromadlar.

Kirish:

Jamiyatning iqtisodiy bo'g'inining bir maromda borishini ta'minlash davlat hokimiyyati tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, ular zimmasiga bir qator majburiyatlar yuklatiladi. Bu majburiyatlar huquqiy, ma'naviy-axloqiy, huquqiy va iqtisodiy shakllarda bo'lib, iqtisodiy majburiyatlar sirasiga noqonuniy pul birliklarini ishlab chiqmaslik, noqonuniy boshqa faoliyat bilan shug'ullanmaslik, erkin tadbirkorlik faoliyatini ochiq shaklda va davlat ro'yxatidan o'tgan holda amalga oshirish, umumjamiyat manfaatlari uchun qonuniy va majburiy tartibda joriy qilingan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini soliqqa tortishningadolatlilik tamoyilidan kelib chiqib o'z vaqtida davlat byudjeti va boshqa fondlarga to'lab borish kabi iqtisodiy-huquqiy majburiyatlardan iborat bo'ladi.

Mazkur yo'nalishda quydagilarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

1). Ikki va undan ortiq yil mobaynida doimiy zarar bilan faoliyat yuritayotgan korxonalar reestrini shakllantirib, Soliq qo'mitasi rasmiy veb saytida e'lon qilish, bunda:

-ushbu korxonalar faoliyati soliq organlarining doimiy nazoratiga olinib, amalga oshirilgan ishlar, jumladan sun'iy ravishda zarar bilan faoliyat yuritish holatlari bo'yicha OAV da axborot berib borish;

-davlat xaridlari jarayonida ishtirokchilarni baholashda inobatga olish;

-bank kreditlarini ajratilishida inobatga olish

Soha bo'yicha o'rtacha soliq yuki va rentabellik darajasi qo'satkichlarini hisoblab chiqish va qo'mitaning rasmiy saytida e'lon qilib borish.

Bunda, soliq yuki va rentabellik darajasi qo'rsatkichlari soha uchun hisoblab chiqilgan o'rtacha qo'rsatkichlardan keskin farq qilgan tadbirkorlik sub'ektlariga soliq nazorati tadbirlarini tayinlash.

2). Yuridik shaxslar tomonidan uy-joylar bo'yicha investitsiya va oldi sotdi shartnomalarini faqatgina elektron shaklda tuzish va soliq organlarida ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish, bunda:

- sotib oluvchining naqd pul va pul ko'chirish shaklidagi to'lovi, hamda qurilish mollari ko'rinishidagi kirimi bo'yicha sotuvchining kirim hujjati mazkur shartnomaga biriktirilishi/integratsiya qilinishi shart;

- notarius idoralari oldi-sotdi operatsiyalarni faqatgina elektron shartnomalar asosida rasmiylashtiradi hamda kirim qilingan pul va tovarlar qiymati yig'indisi shartnoma qiymati hisoblanadi.

3). Soliq xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilarning bank hisobvaraqlaridagi operatsiyalari hamda omonatlariga (depozitlariga) doir ko'chirmalarni soliq organi tomonidan bankka so'rov yuborilgan kunda o'zaro ma'lumot almashish to'g'risidagi bitimga ko'ra axborot taqdim etish tizimini joriy etish.

Shuningdek, yuridik shaxslar tomonidan o'zлari tomonidan qurilgan uy-joylar realizatsiyasi bo'yicha oldi sotdi shartnomalarini faqatgina elektron shaklda tuzish hamda sotib oluvchining (jismoniy shaxsning) naqd pul va pul ko'chirish shaklidagi to'lovleri bo'yicha EHF rasmiylashtirilishi majburiyatini yuklash.

4). O'zbekiston Respublikasining 15.07.2021-yildagi "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'RQ-701-sonli Qonunning 32-moddasiga asosan, litsenziyat yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxs tomonidan litsenziya va ruxsat berish talablari hamda shartlarining buzilganligi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

aniqlanganda litsenziyani amal qilishini o'n kungacha muddatga to'xtatib turish vakolatli organ tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022-yildagi 80-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomning 7-ilovasiga qo'shimcha kiritish va quyidagi tahrirda bayon etish;

- elektron hisobga olish va o'lhash uskunalarini o'rnatmagan va soliq organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilmagan alkogolli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarning litsenziyasini kamchilik bartaraf etilgunga qadar 10 kun muddatga to'xtatib turish;

- elektron hisobga olish va o'lhash uskunalari o'rnatilgan korxonalarda vakolatli organ va Soliq xizmati organlaridan iborat bo'lgan komissiya tuzilib, ushbu komissiya zimmasiga elektron hisobga olish va o'lhash uskunalari belgilangan talablar asosida o'rnatilganligi yuzasidan dalolatnomada rasmiylashtirish.

5). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020-yildagi Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida 6098-sonli Farmoniga asosan mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-iyuldaggi PF-6033-son Farmoniga muvofiq joriy qilingan real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan kuzatish tizimi (GPS) bilan jihozlangan hamda elektron hisoblagich o'rnatilgan avtotransport vositalarida tashilayotgan spirt to'g'risidagi ma'lumotlarni "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsion platformasi vositasida taqdim etish Soliq qo'mitasining ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish.

6). Bugungi kunda bozor tamoyillari asosida narx shakllanishi tizimini samarali amalga oshirish va insofli soliq to'lovchilar va iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish, shuningdek yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati uchun teng sharoitlar yaratish maqsadida tovarlar (xizmat)ning bozor narxini aniqlashning inson omilisiz avtomatlashtirilgan tizimini amaliyotga joriy etish lozim. Soliq bazasini aniqlashda tovarlarning (xizmatlarning) narxini ehtimolga eng yaqin va adolatlilik qiymati, shu jumladan, vakolatli organlar, baholash tashkilotlari tomonidan aniqlanadigan va (yoki) belgilangan, tovarlar (xizmatlar) bozorida realizatsiya qilinishi (ko'rsatilishi) mumkin bo'lgan qiymatni aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

7). Qurilish tarmog‘ida “bir kunlik firmalar” faoliyatini oldini olish maqsadida qurilish tashkilotlari tomonidan mulkchilik shaklidan qat’iy nazar qurilish faoliyatini amalga oshirish jarayonida qurilishda muhim bo‘lgan (sement, g‘isht, metal, quvir, beton plita, shifer, tunuka (temir list), kabi asosiy qurilish mollarini birja savdolari orqali xarid qilish va yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Qurilish vazirligiga qurilish ishlarini boshlash uchun yuborilgan xabarnomalar va berilgan ruxsatnomalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Soliq qo‘mitasi ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilish va onlayn rejimda taqdim etib borish lozim deb hisoblaymiz. Chunki, qurilish tashkilotlari tomonidan mulkchilik shaklidan qat’iy nazar qurilish mollarini xarid qilish bilan bog‘liq “bir kunlik firmalar” mablag‘larni naqdlashtirish holati hamon kuzatilmoqda. Shu boisdan, soliqdan qochishdagi mazkur yo‘nalishning oldini olishda Ustav fondini shakllantirishda ta’sischi (fuqaro) tomonidan ustav fondini to‘ldirish yoki aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun kiritilayotgan pul mablag‘lari manbasi bo‘yicha soliq organlariga deklaratсиya taqdim etish tizimini joriy etish zarur. Buning natijasida esa, haqiqatdagi savdo tushumlarini soliqdan qochish maqsadida, “ustav fondini shakllantirish”, “aylanma mablag‘larni to‘ldirish” kabi topshirishning oldi olinadi va byudjetga soliqlar to‘liq hisob-kitob qilinishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar.

O‘zbekistonda soliq tizimini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflarni keltiramiz:

O‘zbekistonning soliq bazasi tor, bunda soliq to‘lovchilar kam sonli davlat byudjetiga hissa qo‘shadi. Soliq bazasini yangi soliqlarni joriy etish yoki amaldagi soliqlarni ilgari ozod qilingan tarmoqlarga kengaytirish orqali kengaytirish daromadlarni oshirishi va amaldagi soliq to‘lovchilar yukini kamaytirishi mumkin. Soliq to‘lovchilar soliq tiziminiadolatli va shaffof deb hisoblaganlarida, soliq qonunlariga ko‘proq rioya qilishadi. Ixtiyoriy rioya qilishni rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, masalan, soliq hisobotlarini taqdim etish tartib-qoidalarini soddalashtirish va soliq to‘lovchilarni o‘qitish va yordam ko‘rsatish, rioya qilish stavkalarini yaxshilashi mumkin.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. Нормурзаев У. Х. 2021 йилдаги солик маъмурчилиги ҳамда солик кодексига киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар юзасидан //Интернаука. – 2021. – Т. 6. – №. 182 част 2. – С. 99.